

## **INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ESHITISHDA NUQSONI BO'IGAN O'QUVCHILARNING O'RNI: MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA ISTIQBOLLAR**

**Abdullayeva Aziza Menlimuratovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Surdopedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

E-mail: [aabdullaeva366@gmail.com](mailto:aabdullaeva366@gmail.com)

**Mingnarov Abduxoliq Toshmirzayevich**

Ilmiy rahbar, Tarix fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada ushbu o'quvchilarning inklyuziv sinflarga jalb etilishi, ularning ta'lim olishi uchun yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar, pedagogik yondashuvlar va qo'llaniladigan texnologiyalar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, eshitishda nuqson, surdopedagogika, individual ta'lim dasturi, ijtimoiy moslashuv, maxsus pedagog.

### **Kirish**

Inklyuziv ta'lim — bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim maktablarida o'qishini ta'minlaydigan tizim. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizom tasdiqlangan bo'lib, ushbu hujjat inklyuziv ta'limning huquqiy asosini belgilab beradi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar — bu alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar hisoblanadi va ular maktab va bog‘cha sharoitlarida maxsus pedagogik yordamga muhtojdirlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshitish qobiliyatining buzilishi bolaning nutqiy rivojlanishiga, muloqot qobiliyatlariga va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu o‘quvchilarning inklyuziv ta’limdagi o‘rni va ularga ko‘rsatiladigan yordam masalalari alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

### **Asosiy qism**

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning inklyuziv sinflarga qabul qilinishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori asoslangan holda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasi asosida va ota-onalarning roziligi bilan inklyuziv ta’lim sinflariga qabul qilinadi. Qabul qilish uchun zarur hujjatlar qatoriga: ota-onalarning arizasi, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi va bolaning rivojlanish tarixidan tibbiy ko‘chirma kiradi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim sinflariga qabul qilishning asosiy sharti — eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan va rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar mavjud bo‘lmagan hollardir. Bu cheklov bolaning umumta’lim maktabida sog‘lom tengdoshlari bilan birga samarali o‘qish imkoniyatini ta’minlash maqsadida belgilangan.

Xalqaro tajriba: muvaffaqiyatli modellar

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning inklyuziv ta’limdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan maktabda yaratilgan shart sharoit hamda qo‘llab-quvvatlash tizimiga bog‘liq.

Singapur tajribasi. “Mayflower” boshlang‘ich maktabi (Singapur) eshitishda nuqsoni bo‘lgan va imo-ishora tilidan foydalanadigan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan birinchi maxsus maktabdir. Ushbu maktabda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar:

- Birgalikda o‘qitish modeli: maxsus pedagog va umumiy sinf o‘qituvchisi birgalikda dars o‘tadi.
- Individual ta’lim rejasi (IEP): har bir o‘quvchi uchun shaxsiy reja tuziladi.

- Buddy tizimi: eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga yordamchi tengdoshlar biriktiriladi.

- Infratuzilmaviy yechimlar: vizual “e’lon” tizimlari, vizual “qo’ng’iroq” va “signalizatsiya” tizimlari o’rnatilgan.

Avstraliya tajribasi. “St Ives” o’rta maktabi (Sidney) eshitishda nuqsoni bo’lgan o’quvchilarni qo’llab-quvvatlash bo’limiga ega. Bu maktabda quyidagi tamoyillar amal qiladi:

- Kichik sinflarda ixtisoslashtirilgan o’qituvchilar tomonidan ta’lim berish;
- O’quvchilarni asosiy sinflarga integratsiyalash;
- Yillik individual ta’lim rejasini ko’rib chiqish va yangilash;
- Psixologik va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xizmatlari.

O’zbekistondagi amaliyot: mavjud muammolar

O’zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish bo’yicha ijobiy ishlar qilinayotgan bo’lsa-da, amaliyotda bir qator jiddiy muammolar mavjud.

Zarnews.uz nashri tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda Toyloq tumanidagi 30-IDUMda eshitishda nuqsoni bo’lgan Botirali ismli o’quvchi misolida quyidagi muammolar qayd etilgan: bunda maktabda o’qituvchi-logoped yo’qligi, onaning ta’kidlashicha, bolaning eshitish qobiliyati pastligi uchun darslarni o’zlashtirishi qiyinchiliklar kuzatilishi.

Bu misol shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston maktablarida inklyuziv ta’limning asosiy muammolari bu maxsus pedagoglarning yetishmasligi, o’qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo’yicha tayyorgarligi yetarlicha emasligi hamda yordamchi pedagog ya’ni tyutor xodimlarining yo’qligi quyidagilardan iborat:

Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari

So’nggi yillarda augmented reality (AR) va virtual reality (VR) texnologiyalari eshitishda nuqsoni bo’lgan shaxslar uchun ta’limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. “Frontiers” jurnalida chop etilgan keng qamrovli tadqiqotda bir qancha imkoniyatlar qayd etilgan. AR/VR immersiv subtitrlari muzeylar, kutubxonalar, madaniy tadbirlarda qo’llanilishi natijasida visual tushunishning yaxshilanishi kuzatiladi. Multimodal

interfeyslar (haptik, ko‘z kuzatuv) maxsus o‘quv dasturlarida qo‘llanilishi mumkin natijada esa o‘zlashtirish darajasi oshadi. Imo-ishora tili avatarlari ta‘lim dasturlarida qo‘llanilishi natijasida muloqot qobiliyatlarining rivojlanadi. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, ushbu texnologiyalar eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘lim olishidagi to‘siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, hozirgi kunda ushbu texnologiyalar asosan kichik namunalar va qisqa muddatli tadqiqotlar doirasida sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, keng miqyosda joriy etish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va standartlashtirish zarur.

#### Universal Design for Learning (UDL) yondashuvi

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning inklyuziv ta‘limdagi muvaffaqiyati uchun Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari alohida ahamiyatga ega. Vanderbilt universiteti tadqiqotchilari ta‘kidlashicha, UDL quyidagi uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: bir nechta ifoda vositalari — ma‘lumotni turli usullarda taqdim etish, bir nechta harakat va ifoda vositalari — o‘quvchilarga bilimlarini turli yo‘llar bilan namoyish qilish imkoniyati, bir nechta jalb qilish vositalari — o‘quvchilarning qiziqishini turli usullarda uyg‘otish. UDLning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, “o‘quvchilarning o‘zgaruvchanligi qo‘rqinchli narsa emas, balki kuch va boylikdir”. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun UDL doirasida bir nechta yechimlar tavsiya etilgan. Bular vizual qo‘llab-quvvatlash materiallari, imo-ishora tilidan foydalanish, subtitrlar bilan video materiallar, individual yondashuvni ta‘minlovchi raqamli platformalardir.

#### Tibbiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni

Inklyuziv ta‘limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu tibbiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nizomiga ko‘ra, maktab psixologi va tibbiyot xodimi inklyuziv sinflarda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak: maktab psixologi alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bola uchun individual rivojlantirish dasturlarini tuzish, guruhli mashg‘ulotlar o‘tish hamda ota-onalarga maslahat berish, tibbiyot xodimi esa ruhiy asab holatini tekshirish, yuklama me‘yorini belgilash, ota-onalarga maslahat berishi.

Nepalda “Humanity & Inclusion” tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan loyihada eshitishda nuqsoni bo‘lgan Aakanksha ismli qizning ta’lim olishi misolida, “aloqa kalitlari” (communication keyring) va shaxsiy qo‘llab-quvvatlash rejasi orqali muvaffaqiyatga erishilgan. Ushbu tajriba shuni ko‘rsatadiki, hatto resurslar cheklangan sharoitda ham, to‘g‘ri yondashuv va moslashtirilgan materiallar yordamida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi samarali tashkil etilishi mumkin.

#### Ta’lim natijalari va ijtimoiy moslashuv

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning inklyuziv ta’limdagi natijalari bir qancha omillarga bog‘liqligini tadqiqotlarda ko‘rish mumkin. Ushbu omillarga eshitish qobiliyatining buzilish darajasi va yoshga bog‘liqligi, nuqsonni erta aniqlash va aralashuvning o‘z vaqtida amalga oshirilishi, maxsus pedagogik yordamning mavjudligi hamda asosiy omil oila va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi.

Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tashkil etilgan inklyuziv ta’lim eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga nafaqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish, balki ijtimoiy moslashuv va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. “Mayflower” maktabida haftada bir marta o‘tkaziladigan “yordamli o‘yin” (facilitated play) sessiyalari eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar va ularning sog‘lom tengdoshlari o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Inklyuziv ta’lim sharoitida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning o‘rni murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, uni hal qilish quyidagi yo‘nalishlarda tizimli ish olib borishni talab qiladi ya’ni kadrlar salohiyatini mustahkamlash. Maktablarda surdopedagog, logoped va psixolog shtat birliklarini joriy etish, mavjud o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlash. Individual yondashuvni ta’minlash. Har bir eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi uchun individual ta’lim rejasini (IEP) ishlab chiqish va muntazam ravishda yangilab borish. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. AR/VR texnologiyalari, raqamli platformalar va vizual vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Xalqaro tajribani o‘rganish. Singapur, Avstraliya va boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish. Hamkorlik tizimini

yaratish ya'ni oila, maktab va mutaxassislar (logoped, psixolog, surdopedagog) o'rtasida samarali hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish. Jamiyatda bag'rikenglikni shakllantirish. Inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilari — o'qituvchilar, sog'lom o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan bag'rikenglik va hurmat munosabatini shakllantirish.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Zarnews.uz. (2023). Inklyuziv ta'lim: Maktablar bunga tayyormi?
2. St Ives High School. (2025). Support Unit: Hearing. NSW Department of Education.
3. Ilmiy anjumanlar. (2024). НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГОПЕДА В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ.
4. Frontiers in Education. (2025). Inclusive education beyond formal settings: AR and VR as accessibility strategies for deaf and hard-of-hearing individuals.
5. IRIS Center, Vanderbilt University. (2022). Qanday qilib o'qituvchilar inklyuziv sinflarda kognitiv nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni eng yaxshi rejalashtirishi va o'rgatishi mumkin?
6. Humanity & Inclusion Canada. (2025). Breaking down barriers: Aakanksha's journey to inclusive education.
7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023). Qanday bolalar inklyuziv ta'limga qamrab olinadi va qabul jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
8. The University of Queensland. (2025). The role of ENT/audiology services in the implementation of inclusive education in the Pacific Islands – a scoping literature review for Samoa. International Journal of Inclusive Education.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 y. 638-son qarori. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom.
10. Mayflower Primary School, Singapore. (2026). Support for Hearing Loss Students.